
Farzandlar kamoloti yo'lida

Farg'ona tumanidagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida 900 nafarga yaqin kelajagimiz vorislariga 63 nafar fidoyi ustozlar ta'lim-tarbiya berishmoqda.

Maktab direktori Ma'mirjon Qo'shmatov 40 yildan buyon ushbu maktabda faoliyat olib borayotgan bo'lsa, rus tili fani o'qituvchisi Sodir Sottiyev 35 yil, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Surayyo Erkaboyeva, tarix fani o'qituvchisi Xosiyat Turg'unova, kimyo fani o'qituvchisi Gulbahor Sayfiddinova va chizmachilik fani o'qituvchisi Nigora Ergashevalar uzoq yillar mobaynida qadrdon bilim dargohida ustozlik kasbini e'zozlab kelishmoqda.

- O'quvchilarimiz muntazam ravishda fan olimpiadalari va bilimlar bellashuvlarida tuman va viloyat bosqichi g'oliblari bo'lishadi, -deydi ta'lim muassasasi rahbari M. Qo'shmatov. - Shu bois bilim dargohimiz nafaqat tuman, balki viloyat bo'yicha ham eng yaxshi maktablar sirasiga kiradi.

B. MADIYOROV.

Suratni Sh. QORABOEV olgan.

2018-10-03 19:45:30